

KORPORATIV PROFAYL 2018-2021



INNOVATION, TECHNOLOGY
AND STRATEGY CENTER

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
huzuridagi "Innovatsiya, texnologiya
va strategiya markazi" Davlat unitar korxonasi



INNOVATION, TECHNOLOGY
AND STRATEGY CENTER

MANZIL
100187, Toshkent shahar,
Shayxontohur tumani,
Navoi ko'chasi, 2a

+998 71 207-39-39

GEOPOZISIYA



itsm.uz

[@itsm.uz](#)

[@itsm](#)

[@itsm](#)

Mundarija

- ▶ SO'Z BOSHI 04
- ▶ MARKAZ HAQIDA 05
- ▶ FAOLIYAT YO'NALISHLARI 07
- ▶ "COVID 19" GA QARSHI KURASHGA HISSA QO'SHISH 08
- ▶ LOYIHALAR 09-43
 - ▶ Ta'lim tizimi boshqaruvini raqamlashtirish
 - ▶ Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish
 - ▶ Elektron kontent ishlab chiqish
 - ▶ Ta'lim tizimidagi yangi tashabbuslar
 - ▶ Xalqaro hamkorlar ishtirokidagi loyihalar
- ▶ OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI BILAN ALOQA 44-47
- ▶ HAMKORLIK 48
 - ▶ Xalqaro hamkorlik
 - ▶ Mahalliy hamkorlik

Xalqaro hamkorlik

ITSM quyidagi davlatlarning tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi:

- ✓ AQSh
- ✓ Buyuk Britaniya
- ✓ Belarus
- ✓ Finlyandiya

- ✓ Xitoy
- ✓ Yaponiya
- ✓ Avstriya
- ✓ Shveysariya

- ✓ Daniya
- ✓ Qozog'iston
- ✓ Rossiya
- ✓ va boshqalar



OAV bilan aloqa

Telekanallar va Internet nashrlari bilan hamkorlik:

ITSM matbuot xizmati tashkilot faoliyati to'g'risidagi axborotni tarqatish, shuningdek, aholi o'rtaida xabardorlikni oshirish uchun telekanallar va Internet-nashrlar bilan faol hamkorlik qiladi.



O'zbekiston
Milliy axborot
agentligi



Hamkorlarimiz haqida foydali havolalar:



unicef.org



zayedsustainabilityprize.com



york-press.com



britishcouncil.uz



en.unesco.org



en.unesco.org



rti.org



gigaconnect.org



zaminfofoundation.ngo



uzedu.uz



eda.admin.ch



eeas.europa.eu



jica.go.jp



varkeyfoundation.org



projectconnet.unicef.org




So'z boshi

Innovatsion texnologiyalar butun dunyodagi o'qituvchilar va o'quvchilar uchun o'quv jarayonini o'zgartiradi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq tizimni modernizatsiya qilish maqsadida faol harakatlar amalga oshirilmoqda.

Konsepsiya qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib, xalq ta'limi tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni tatbiq etish, yoshlarni mакtabdan tashqari ta'lim va tarbiyalashning zamonaviy uslub va yo'nalishlarini joriy etish, hamda ularning bandlik bilan ta'minlash, **DUK "Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi" (ITSM)** ushbu dasturlarni amalga oshirish bo'yicha maqsadlarni belgilaydi.

ITSM loyihalari O'zbekiston xalq ta'limi tizimini boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish hamda o'qituvchilar va talabalarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun innovatsion yondashuvlar, platformalar va tizimlarni joriy etishga qaratilgan.



ITSM haqida qisqacha ma'lumot

ITSM **2018-yil 28-noyabr** kuni O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi huzurida tashkil etilgan.

ITSMning asosiy maqsadi xalq ta'limi tizimiga zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, veb-platformalar, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlarini joriy etish hamda, strategik tahlil va rejalashtirish orqali sohani yanada rivojlantirishdan iboratdir.

Muvaffaqiyatli loyihalar

ITSMning birinchi va muvaffaqiyatli loyihalaridan biri- "**Prezident maktablari**"ni tashkil etishdir (**2019 y.**). Shuningdek, "Onlayn qabul", "Zamonaviy maktablar" va boshqa loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

ITSM tomonidan amalga oshirilgan boshqa 20 dan ziyod loyihalar, ta'lim tizimini raqamlashtirishning muvaffaqiyatli misollari bo'la oladi.

Bizning qadriyatlar

Maqsadimiz

Xalq ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va tizimni yanada rivojlantirishni rejalashtirish.

Vazifamiz

Xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalar, platformalar, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va ularni joriy etish.

Mahalliy hamkorlik

Quyidagi tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan:



Respublika
Ta'lim Markazi



IT PARK
START LOCAL GO GLOBAL



JAPAN DIGITAL
UNIVERSITY



Webster
UNIVERSITY
Tashkent




Xalqaro va xorijiy hamkorlar




**“Bizning
farzandlarimiz
yaxshiroq
kelajakka
munosiblar**

Faoliyat yo'nalishlari



Hodimlar soni

so'nggi 4 yil ichida



27



Xodimlarning
o'rtacha yoshi

10%



Xorijda tahsil
olgan xodimlar



Maktab ta'lifi uchun masofaviy ta'lif

⌚ 08.2020-yildan - 12.2020-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Zarur texnologiyalarni joriy qilish orqali maktab o'quvchilari va o'qituvchilari uchun masofadan o'qitish uchun qulay shartsharoitlar yaratish



Loyiha doirasida masofaviy ta'lif bilan shug'ullanadigan o'qituvchilarga noutbuk ajratildi va onlayn ta'lif platformasining prototipi ishlab chiqildi.



Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Embassy of Switzerland
Swiss Cooperation Office in Uzbekistan

Loyihalar O'zbekistondagi Shveysariya elchixonasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda

Digital Empowerment of Girls [ICT4Girls]

⌚ 11.2021-yildan - 05.2022-yilgacha

Loyiha maqsadi:

O'zbekistondagi qizlarda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish



ICT4GIRLS
DIGITAL EMPOWERMENT OF GIRLS

ICT4Girls loyihasi doirasida amalga oshiriladigan ishlari:



Onlayn kurslar



IT-oromgoh



Ishtirokchilar uchun tadbirlar



Malakali mutaxassislar ishtirokida murabbiylilik dasturi

Loyiha maktab, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikum o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

"COVID 19"ga qarshi kurashga qo'shgan hissamiz

Koronavirus (COVID 19) pandemiyasi barcha sohalarda misli ko'rilmagan inqirozni keltirib chiqardi. Ta'lif sohasida ushbu favqulotda holat, virus tarqalishining oldini olish va uning ta'sirini yumshatish uchun **190 dan ortiq mamlakatlarda** odatiy ta'lif jarayonini tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Yangi loyihalar kombinatsiyasi va COVID 19 ning oldini olish bo'yicha tezkor choratadbirlarni amalga oshirilishi tufayli, ITSM o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirishga muvaffaq bo'ldi.

Shuningdek, ta'lif tizimini onlayn rejimga o'tkazishda **asosiy bo'g'in bo'ldi**.



13 000 o'qituvchilar malakasi oshirildi

6 000 o'quvchi kasbiy ko'nikmalarni egalladi

Coursera jahon onlayn ta'lif platformasi yordamida **o'zbek segmentiga moslashtirilgan onlayn kurslar ishga tushirildi**.



EduKids loyihasi doirasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'rifiy videoroliklar chiqarildi: pandemiya davrida psixologik yordam, gigiyena choralar bo'yicha qo'llanma, pandemiyaga qarshi kurash bo'yicha qo'llanma va boshqalar.



Smartland **1 000** dan ziyod o'yinlar
Interaktiv virtual ta'lif platformasi ishga tushirildi.

Onlayn ta'limga bosqichma-bosqich o'tish uchun ITSM onlayn ta'larning xalqaro tajribasi va mazmunini o'rgangan holda **1-11-sinf o'quvchilari uchun onlayn darslarni "Onlayn maktab"** platformasiga uzluksiz yuklanishini ta'minladi.

MARKAZ LOYIHALARI

Ta'lim tizimi boshqaruvini raqamlashtirish

itsm
Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi

Ta'lim rejalarini monitoring qilish rejalashtirish maqsadida hisobot berish usullarini va ma'lumotlardan foydalanishni takomillashtirish

⌚ 11.2021-yildan - 01.2022-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Bo'shlqlar va ehtiyojlarni, mavjud ma'lumotlar tizimlarini tahlil qilish va siyosat tahlili va qarirlarni qabul qilishni yaxshilash uchun tavsiyalar va yo'l xaritasini ishlab chiqish



Amalga oshirilgan ishlari:

- ✓ Mavjud ma'lumotlar tizimlari tahlil qilindi va bo'shlqlar aniqlandi;
- ✓ Rivojlantirish uchun aniqlangan joylar belgilandi;
- ✓ To'plangan va tahlil qilingan ma'lumotlarni hisobga olgan holda mavjud axborot tizimlarini takomillashtirish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

2019-2023 yillarda O'zbekiston ta'lim sektori rejasining veb-saytini yaratish

⌚ 11.2021-yildan - 12.2021-yilgacha

UNICEF ko'magida **2019-2023 yillarda** ta'lim sohasini rivojlantirishning ikkinchi rejasini ishlab chiqildi, bu mamlakatda ta'lim sohasidagi milliy siyosatning asosiy vositasi bo'ladi.



Veb-saytning **asosiy maqsadi**-milliy hamkorlar, rivojlanish bo'yicha hamkorlar guruhi va yangi donorlar o'rtasida o'zaro hisobdorlik va birgalikda javobgarlikni ta'minlash uchun O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish rejasini ilgari surishdan iborat.

Coursera

2019-yil

Loyiha maqsadi:

Covid-19 pandemiyasi davrida turli yo'nalishlarda kurslarda uzuksiz onlayn ta'lif olishni ta'minlash



Pandemiya davrida, **ITSM** Coursera platformasida xalq ta'lifi tizimida ishlardigan

20 000 dan ortiq xodimlar va **30 000 dan ortiq o'quvchilar** bepul ta'lif olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.



50 000
foydalanuvchilar



70 000
o'qish soatlari

COVID-19 pandemiyasi davrida AKT sohasida o'qituvchilarning malakasini oshirish

01.2021-yildan - 02.2021-yilgacha



Loyiha JICA va Japan Digital University tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirildi



JAPAN DIGITAL UNIVERSITY

Loyiha asosiy vazifalari:



O'zbekistondagi xalq ta'lifi tizimidagi o'qituvchilarning malakasini oshirish



Qo'shimcha ta'lif olish imkoniyatini yaratish

Ushbu loyiha doirasida o'qituvchilar malakasini oshirish va IT ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lif muassasalarini zamonaviy kadrlar bilan ta'minlash, AKT va xalqaro tajribani joriy etish uchun har bir viloyatdan, **Toshkent shahri** va **Qoraqalpog'iston Respublikasidan** o'qituvchilar tanlab olindi.



Xalq ta'lifi boshqaruvi axborot tizimi

03.2020-yildan - h.v.

Xalq ta'lifi tizimini markazlashtirilgan avtomatlashtirilgan boshqaruvi, monitoring qilish va rejalashtirishni ta'minlovchi tizim.

Loyiha maqsadi:

2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston" PF-6079-sonli qarori asosida xalq ta'lifi tizimini boshqarish va monitoring qilishning yaxlit tizimini yaratishga belgilandi.

Ushbu tizim yordamida maktablar, sinflar, o'quvchilar soni va o'qituvchilarning ish haqi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, hamda ularni doimiy ravishda kuzatib borish mumkin.

Shuningdek, bu tizim Xalq ta'lifi tizimini boshqarish, monitoring va rejalashtirishni avtomatlashtirish imkonini beradi. Ushbu **tizimdan** foydalanadigan maktablar, sinflar, o'quvchilar soni va o'qituvchilarning ish haqi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar elektron ma'lumotlar bazasida yaratilishi va doimiy ravishda kuzatilishi mumkin. **"Elektron hukumat"** tizimi idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali davlat tashkilotlari bilan integratsiyalashgan.

Hozirda integratsiyani boshqa tizimlar bilan bog'lash orqali tizim imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda: **FACE ID, Olimpiadalar, Kasbiy tayyorgarlik, Kadrlarni qayta tayyorlash, Sertifikatlashtirish, Kundalik.com** va boshqalar.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO'MITASI
HUZURIDAGI
KADASTR
AGENTLIGI

DTM
DAVLAT TEST MARKAZI



Kutubxona kitob fondi platformasi

⌚ 03.2021-yildan - 12.2021-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Kutubxona tizimini raqamlashtirish, kutubxona fondini monitoring qilish va onlayn boshqarish



Loyihaning asosiy vazifalari:

- Kutubxona fondini yuritishning aniqligini oshirish va kitob fondini kataloglashtirishda inson omilini kamaytirish;
- Shtrix-kodli elektron kitoblar bazasini shakllantirish;
- Har bir kitobni shtrix-kod bilan ro'yxatdan o'tkazish va raqam berish;
- Kutubxona fondiga yangi kitobni qabul qilish va uni o'quvchiga taqdim etishni tezlashtirish va avtomatlashtirish;
- Loyihaning ilk taqdimoti va sinovi Toshkent shahridagi 22 ta maktabda bo'lib o'tdi.



O'zbekistonda mustaqil o'qituvchilar assotsiatsiyalari imkoniyatlarini kengaytirish



Loyiha maqsadi:

O'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, huquqiy savodxonligini oshirish, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida assotsiatsiyalar tuzish



O'qituvchilar assotsiatsiyasining asosiy maqsadi xalq ta'limi tizimida ishlaydigan oqituvchilarni to'liq qo'llab-quvvatlashdir.

Loyiha doirasida:

- ✓ ITSM jamoat birlashmasini shakllantirishda amaliy yordam ko'rsatdi;
- ✓ Loyiha maqsadini qo'llab-quvvatlash uchun Ta'lim Internet Portali yaratildi;
- ✓ Tanlov va madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda yaqin hamkorlik va tajriba almashish.



Loyiha Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan



Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ochiq raqamli platformani yaratish

⌚ 04.2021-yildan - 08.2021-yilgacha

Loyiha maqsadi: Ishga joylashish va kasb tanlash bo'yicha professional maslahat beradigan ochiq raqamli platformani yaratish



Platforma ishlab chiqildi



O'zbekistonda va butun dunyoda ishga joylashish uchun qo'llanma yaratish

⌚ 05.2021-yildan - 12.2021-yilgacha



O'zbekistonda ish topish bo'yicha maktab bitiruvchilari uchun qo'llanma ishlab chiqildi



Bosma va onlayn formatda mavjud

e-Shahodatnoma

⌚ 05.2021-yildan - h.v.

Loyiha maqsadi:

Xalq ta'limi tizimini raqamlashtirish va uchinchi shaxslar uchun maktab sertifikatlaridan foydalanishni soddalashtirish

Loyiha doirasida quyidagilarni amalga oshirish rejalashtirilgan:



Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning elektron bazasini yaratish, maktab bitiruvchilari sertifikatlari reestrini yaratish orqali attestatlarni raqamlashtirish, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning dublikatlarini berish tizimini takomillashtirish;



Davlat ta'lim tizimiga kiruvchi maktablar tomonidan berilgan sertifikatlar bazasini yaratish;



Hujjatlarni oliy o'quv yurtlariga topshirish jarayonini osonlashtirish maqsadida onlayn-hujjatlar bazasini yaratish;



Davlat va xususiy maktablarini yagona platformaga biriktirish;




Maktab bitiruvchilariga zamonaviy xalqaro talablarga javob beradigan 6 yillik o'rtacha reyting aks ettirilgan elektron sertifikat taqdim etish.



Xalq ta'limi vazirligi umumta'lim muassasaları bitiruvchilari attestatlarini ro'yhatga olish tizimi

Tizimga kirish



Ijtimoiy himoya

Axborot tizimini joriy etish

⌚ 05.2021-yildan - 12.2021-yilgacha



Loyiha maqsadi:

Kam ta'minlangan oilalar farzandlari to'g'risidagi elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, shuningdek manfaatdor idoralar kam ta'minlangan oilalar farzandlari, ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlash.

Ushbu loyiha ijtimoiy himoya reestrini yaratish orqali kam ta'minlangan oilalardagi bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan

Axborot tizimiga quyidagi ma'lumotlar joriy etilmoqda:


- Kam ta'minlangan oilalar farzandlari haqida ma'lumot;
- Oziq-ovqat xarajatlarini qisman qoplash uchun umumta'llim muassasalarining kam ta'minlangan o'quvchilarini ota-onalarning ozod etish to'g'risidagi ma'lumot;
- Qishki kiyimlar to'plamini bepul taqdim etish haqida ma'lumot;
- Kam ta'minlangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan har bir bolaga beriladigan va to'lanadigan nafaqlar to'g'risidagi ma'lumot.

Loyiha doirasida tashkil etilayotgan ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda "Ijtimoiy himoya yagona reestri" bilan idoralararo ma'lumotlar almashinuvini elektron shaklda joriy etish rejalashtirilgan.

Yetim va ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni vasiylikka yoki homiylikka olish

Axborot tizimini yaratish

⌚ 05.2021-yildan - 12.2021-yilgacha



Loyiha maqsadi:

Vasiylik yoki homiylikka olingan bolalarni qabul qilish bo'yicha hujjatlar va tizimlarning elektron bazasini yaratish.

Loyiha doirasida:

- Vasiylik yoki homiylikka olingan bolalarni tarbiyalashga oid ma'lumotlar bazasi yaratildi;
- Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtirildi.



Hayot tarzini yaxshilash uchun o'zgarishlarni amalga oshiradigan yoshlarni qo'llab-quvvatlash (Generation Unlimited)

⌚ 04.2021-yildan - 08.2021-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Muvaffaqiyatli ishga joylashish uchun kamida 5000 yoshlarni amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlash



Ushbu loyiha maktab bitiruvchilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan UNICEF bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Asosiy hayotiy ko'nikmalar bo'yicha **3ta** onlayn trening ishlab chiqildi. Bular, ishga joylashish vaqtida zarur bo'lgan ko'nikmalar, sifatli rezyume yozish va intervyu berish haqida. **5000 nafar** o'quvchi yuqorida ko'rastilgan mavzularda zarur ko'nikmalarga ega bo'ldilar.

Assalom Korea

Onlayn video darslar

Loyiha maqsadi: ⌚ 2021-yildan - h.v.

Butun dunyoda "Koreya to'lqini"ning faoliyatlari davom etmoqda va O'zbekiston xalqining Koreys madaniyatiga, an'analariga va turmush tarziga bo'lgan qiziqishini inobatga olgan holda, ushbu yo'nalishlarda videolavhalarni namoyish etish orqali koreys tilini bosqichma-bosqich o'rgatishning tezkor usulini joriy etish.



Videolar "Onlayn maktab" TV kanallari orqali efirga uzatildi.



Dastur davomida koreys tilini koreys tilidagi qo'shiqlarning so'zlari yordamida o'rganiladi. Til va madaniyatni o'rganishning bunday formati yoshlarga o'quv materiallarini tezroq o'rganish va koreys tilining asosiy ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi.

AKT yechimlaridan foydalanishni kengaytirish va O'zbekiston qizlari va o'g'il bolalarning IT ko'nikmalarini rivojlantirish (Re-Imagine)

 03.2021-yildan - 09.2021-yilgacha

Loyha maqsadi:

O'zbekistonda raqamli ta'lif yechimlarini joriy etish orqali yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash



Ushbu loyha UNICEFning dunyodagi har bir bola uchun raqamli ta'lifdan teng foydalanishini ta'minlash bo'yicha global tashabbusidir.

Natijalar:

-  Maktab o'quvchilarining an'anaviy va raqamli ko'nikmalarini yaxshilash maqsadida o'zbek tilidagi videolardan iborat raqamli ta'lif kontentlari ishlab chiqildi
-  Raqamli platformaning kontentini an'anaviy va raqamli ko'nikmalar bilan to'ldirildi

-  Maktab o'quvchilarining, shu jumladan, maxsus ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarining, olis qishloq hududlaridan kelgan o'quvchilar va qizlarga qaratilgan kontent tayyorlash uchun ularning o'quv jarayonidagi ehtiyojlari aniqlandi
-  Raqamli platformaning kontenti asosiy va raqamli ko'nikmalar bilan boshqarildi

Amalga oshirilgan ishlar:

Ehtiyojlarni baholash natijalariga asoslanib, ta'lif platformasi uchun tanlangan ta'lif manbai www.maktab.uz uzoq qishloq, qizlar va ta'limda maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilariga e'tibor qaratib, kontekstual ta'lif ehtiyojlarini qondirish uchun modernizatsiya qilindi;

Platformaga yuklash uchun kontent yaratildi;

Ta'limda maxsus ehtiyojlarga ega bilan uzoq joylarda yashovchi, qizlar va o'quvchilar foydalanuvchilar tomonidan yangilangan prototipi sinovdan o'tkazildi;

Qiz bola o'quvchilarni qamrab olish bo'yicha bir nechta tashabbuslar amalga oshirildi;

Hozirgi vaqtida Reimagine Education loyihasi doirasida "Girls for Girls" 7ta video seriyasi chiqarildi.

1-sinfga onlayn qabul

 02.2021-yildan - 09.2021-yilgacha



2020/2021 o'quv yilida 1-sinfga qabul jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish, ota-onalarning bir vaqtning o'zida maktablarda yig'ilishini ta'minlash va pandemiya sharoitida karantin qoidalariga rioya qilish maqsadida, ITSM tomonidan 2020/2021 o'quv yilida umumta'lim maktablarining **1-sinf o'quvchilarni onlayn ro'yxatga olish tizimi yaratildi.**


Loyha maqsadi:

1-sinfga qabul jarayonini soddalashtirish va avtomatlashtirish, hamda maktabga qabul qilish jarayonini adolatli va shaffofligini ta'minlash

Bola to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda shakllantirish maqsadida, tizimda Adliya vazirligining 2013-2014-yillarda tug'ilgan bolalarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari ma'lumotlar bazasiga birlashtirildi, har bir navbat belgilangan vaqtida maktablarga yagona identifikator orqali yuborildi.



2021-2022-yillarda 158 mingdan ortiq navbatga qabul qilish jarayoni amalga oshirildi, 1-sinfga 105 mingdan ortiq o'quvchi qabul qilindi



Zamonaviy maktablarni baholash jarayonini tashkil etish

⌚ 10.2020-yildan - h.v.

Loyihha maqsadi:

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha maktablarni baholash va ularning reytingini aniqlash



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy Maktablarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida "gi 4537-sonli

qaroriga muvofiq, ITSM "Zamonaviy Maktablar"ga qo'yiladigan talablar asosida umumiyl o'rta ta'lim muassasalarini baholash bo'yicha ma'sul tashkilot etib belgilandi.


- "Zamonaviy maktablar" talablari ishlab chiqildi;
- Loyihha 2020-yilda Toshkent shahrining 4ta maktabida aprobatsiyadan o'tkazildi;
- 2021-yilda respublikamiz bo'ylab 750 ta maktab baholanib, ularga muvofiqlik sertifikatlari berildi;



Loyihaning yana bir qismi maktablarning reytingini aniqlash uchun elektron platformani ishlab chiqishdan iborat.

"Zamonaviy maktab" talablari asosida umumta'lim muassasalari reytingini aniqlashga qaratilgan elektron platforma ishlab chiqildi.

Ushbu platforma barcha maktablarning reytinglari bazasiga ega bo'lib, ularni baholash jarayonini osonlashtiradi.



Maktablarni ulash imkoniyatlarini xaritalash va ta'limdagi raqamli davlat mollariga bo'lgan ehtiyojni baholash (GIGA)


⌚ 03.2021-yildan - 09.2021-yilgacha

Loyihha maqsadi:

Har bir maktabni internetga ulash va har bir o'quvchiga ma'lumot yetkazish, COVID 19 pandemiyasi oqibatlariga zudlik bilan javob berishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, aloqaning mustahkam infratuzilmasi va imkoniyatlarini rivojlantirishni yo'lga qo'yish.

Amalga oshirilgan ishlar:

- ✓ Maktablarning joylashuv va internetga ulanish holatini aniqlash, shuningdek, ulanishdagi kamchiliklar yuzasidan ma'lumotlar toplash;
- ✓ Ta'lim sohasida raqamli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarni baholash;
- ✓ Maktablarda muloqotni ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratish.



MARKAZ LOYIHALARI

Xalqaro hamkorlar ishtirokidagi loyihalar

itsm
Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi

ish.uzedu.uz

09.2021-yildan - 12.2021-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Mazkur loyiha davlat ta'lif tizimi tashkilotlari va muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, hamda ushbu jarayonni ochiq va oshkora tashkil etishga xizmat qiladi




Loyiha doirasida ishlab chiqilgan maxsus elektron platforma yordamida sinov orqali ishga qabul qilish uchun nomzodlarni baholash tashkil etildi, buning natijasida, vakansiyalar uchun olingan so'rovlarni umumlashtirish jarayoni, shuningdek, nomzodlarni sinovdan o'tkazish jarayoni to'liq avtomatlashtirildi.

pr.uzedu.uz

Loyiha maqsadi:

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda xalq ta'limi tizimiga taaluqli savollar va murojaatlarga o'z vaqtida javob berish



pr.uzedu.uz loyihasi
jamoatchilik bilan aloqalar
va ommaviy axborot
vositalari bo'limi faoliyatini
optimallashtirish va
avtomatlashtirishga
qaratilgan

Mazkur portalning ishga tushirilishi OAVda chop etilgan nashrlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ular bo'yicha statistik ma'lumotlarni tayyorlash va boshqa bir qator ishlarni avtomatlashtirish imkonini berdi.

idea.uzedu.uz

09.2020-yildan - 12.2020-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Aholi bilan aloqa o'rnatish, ularning g'oyalarini ko'rib chiqish va xalq ta'limi tizimini takomillashtirish bo'yicha fikr va mulohazalarni o'rganish



Bugungi kunda Portal orqali 80 dan ortiq turli mazmundagi g'oyalar va takliflar kelib tushdi



Portal yordamida aholi o'z g'oyalari va takliflarini bir necha yo'nalishda bildirishi mumkin:

- Ta'lim sifatini oshirish;
- O'quvchilar ta'limini yaxshilash;
- Innovatsiyalar va texnologiyalar;
- Davlat-xususiy sherikchiligi;
- Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish;
- Zamonaviy maktab va maktab infratuzilmasini takomillashtirish;
- O'zbek tilini o'qitishni takomillashtirish.



ESN - English Speaking Nation

04.2020-yildan - 09.2021-yilgacha

Loyiha ingliz tili o'qituvchilarini baholash va malakasini oshirishni nazarda tutadi. Loyiha doirasida **15 000** nafar o'rta maktab o'qituvchilari va **1000dan** ortiq murabbiy ingliz tilini bilish va sifatini yaxshilashga yordam beradigan ishlardan uzilmagan holda o'qitish usullari va amaliyotlari o'rgatiladi.

2021 yilning noyabr oyidan boshlab mazkur uch yillik dastur Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika Ta'lim Markazi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ingliz tilini bilish darajasini yaxshilash va dars davomida undan foydalanish maqsadida O'zbekistondagi o'rta maktablar o'qituvchilarining ingliz tili bilimi darajasini oshirish;

O'zbekistondagi maktab o'qituvchilarining o'quvchilar ehtiyojlariga yo'naltirilgan pedagogik ko'nikmalarni takomillashtirish;

O'zbekistondagi maktab o'qituvchilarining tizim ichida va undan tashqarida ijobjiy idrokini mustahkamlash;

Ingliz tilini o'qitishda mukammallikka erishish uchun o'qitish tizimida qulay va qo'llab-quvvatlovchi ekotizimni rivojlantirish.



Respublika
Ta'lim Markazi



Call-Markaz

⌚ 07.2020-yildan - h.v.

Loyiha maqsadi:

Xalq ta'limi tizimi bilan bog'liq fuqarolarning murojaatlariga sifatli va o'z vaqtida javob berishni ta'minlash




+998 71 202 09 09

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, aholini qiziqtirgan savollarga javob berish maqsadida ITSMda **2020-yil iyul oyidan boshlab** O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining yagona **Call-markazi** tashkil etildi.

Call-markaz faoliyati boshlanganidan buyon

60 000 dan ziyod murojaatlar qabul qilindi

2020-yil
15 000+
murojaat



2021-yil
45 000+
murojaat

MARKAZ LOYIHALARI

Ta'lim jarayonlarini
raqamlashtirish

Yagona elektron ta'lif

tarmog'ini joriy qilish

05.2021-yildan - 12.2021-yilgacha



Ushbu loyiha davlat ta'lif muassasalari o'rtaida himoyalangan korporativ tarmoqni yaratish va maktablarda tegishli axborot tizimlaridan foydalanishni joriy etishga xizmat qiladi.

Imkoniyatlar:

- Hududlarda zamonaviy o'quv-kompyuter sinflari va kompyuter qurilmalarining real vaqt rejimida holatini monitoring qilish;
- To'g'ri va ishonchli ma'lumotlarni olish va tahlil qilish;
- Markazlashtirilgan axborot paneli orqali o'quv jarayonlarida kompyuterlardan foydalanish.

Loyiha doirasida turli ta'lif resurslaridan cheksiz foydalanish ta'minlanadi

Loyiha doirasida:

Turli ta'lif resurslaridan cheksiz foydalanish

Zamonaviy o'quv va kompyuter sinflari mavjud bo'lgan maktab ma'muriyati uchun tegishli va tezkor choralar ko'rish

O'quv jarayonini tashkil etish va ta'lif muassasalari o'rtaida axborot almashinuvini yaxshilash



Har yili



«USTOZ»
milliy mukofoti



Loyiha maqsadi:

Tanloving maqsadi - xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan ilg'or, ijodkor va tashabbuskor o'qituvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy salohiyatini namoyon etish, shuningdek, ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanib, mazmunli natijalarga erishayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirish, o'qituvchi kasbining nufuzini oshirishdan iborat.

Tadbirni tashkil etish uchun xalqaro standartlarga muvofiq **Global Teacher Prize** mukofoti tashkilotchisi **Varkey fondi** bilan o'zaro anglashuv memorandum imzolandi.


Ushbu loyiha ITSM asosiy **texnik hamkor** bo'lib xizmat qiladi.

Maxus **www.ustozmukofoti.uz** rasmiy veb-sahifasi milliy mukofotda ishtiroy etishda ariza topshirish uchun **ishlab chiqilgan**.

29 850ta nomzod ro'yxatdan o'tdi

7200ta ariza ko'rib chiqildi

4300ta ariza qabul qilindi





Yangi O'zbekiston Ustozlari

03.2021-yildan - 09.2021-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Ta'lism sifatini oshirishni talab qiladigan maktablarga malakali mutaxassislarni jalg etish




Ushbu loyiha doirasida O'zbekiston bo'ylab murojaatlarni oson qabul qilish uchun rasmiy veb-sahifa ishlab chiqildi. Natijada **412 ta ariza qabul qilindi** va **185 nafar nomzod** suhbatdan muvaffaqiyatli o'tdi. Barcha tanlangan nomzodlar belgilangan maktablarda o'z faoliyatini boshladilar.

185 ta ishtirokchi

412 ariza

Barcha saralangan o'qituvchilarga **50% dan 100% gacha** ustama haqi to'lanmoqda

Natijada, malakali o'qituvchilarni jalg qilish va o'zaro tajriba almashish tufayli maktablar reytingi oshadi, o'quvchilar O'zbekistondagi eng yaxshi o'qituvchilardan saboq olish imkoniyatiga ega bo'ladi.



Maktab.uz

02.2021-yildan - h.v.

Xalqaro standartlarga javob beradigan va maktab o'quvchilari uchun yuqori sifatli uzlusiz masofaviy ta'limgi ta'minlaydigan zamonaviy raqamli ta'limg texnologiyasi.



Loyiha maqsadi:

Sifatli ta'limg olish uchun imkoniyatlar yaratish, shuningdek, ta'limg resurslaridan erkin foydalanish. O'quvchilarning ta'limg jarayonini kuzatish va onlayn materiallarni olish imkonini beruvchi ko'p funksional platforma yaratish



Sifatli masofaviy ta'limgi ta'minlashga qaratilgan ta'limgi boshqarish platformasi

Imkoniyatlar:

O'quvchilar uchun: yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda tayyorlangan **videolarni ko'rish**, topshiriqlarni bajarish, hamda bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash;



Maktab.uz

O'qituvchilar uchun: o'quvchilarning fanlar bo'yicha **ilmiy natijalarini monitoring qilish** va o'quvchilarning qaysi mavzular bilan bog'liq muammolari, shuningdek, qaysi mavzular muvaffaqiyatli bo'lishi haqida ma'lumot olish;

Ota-onalar uchun: mavzularning mazmuni haqida **qisqa prezентatsiyalar** orqali tanishish.



Asosiy fanlar bo'yicha **7 700** ta videolar

O'qituvchilar va o'quvchilar uchun **2 500** ta taqdimotlar

Maktabdan tashqari kurslar uchun **500** ta o'quv materiallari

Kitob.uz

Elektron kitoblar
va audiokitoblar to'plami

04.2020-yildan - 12.2020-yilgacha

Kitob.uz – ma'nnaviy boylik, madaniyat va millat ko'zgusi bo'lib xizmat qilayotgan o'zbek tilidagi elektron va audio kitoblardan foydalanish imkonini beruvchi yangi va zamonaviy portaldir. Yaratilish jarayonida texnik jihatdan mukammal arxitektura ishlab chiqildi. Shuningdek, "Kitob.uz" sayti kitoblar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va boshqa ta'lif resurslarining raqamli to'plamini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

Loyiha maqsadi:

Respublikada rasmiy kitoblarni sotib olish va sotish huquqiga ega bo'lgan yirik nashriyotlar va muassasalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, mualliflik huquqi normalariga muvofiq barcha kitoblarni joylashtirishni ta'minlash orqali veb-portal tarkibini kengaytirish.

Platformaga 3 500 dan ortiq

kitob va audiokitoblar yuklangan. Ayni paytda, ushbu platformada 50 000 dan ortiq faol foydalanuvchilar mavjud.



2 500 kitoblar



950 audiokitoblar

50 000 foydalanuvchilar

Android va **iOS** tizimlari
uchun mobil ilova ham
ishlab chiqilgan



STEM ta'lmini rivojlantirish

⌚ 03.2021-yildan - 12.2021-yilgacha

"Umumta'im maktablaridagi kimyo, fizika va biologiya kabinetlarining o'quv-laboratoriya jihozlarini optimallashtirish" va "Zamonaviy maktab" loyihasi doirasida **STEM** dars ishlanmalarini yaratish va ularni laboratoriya jihozlari bilan jihozlash", hamda "Fizika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha laboratoriya o'qituvchilarining malakasini oshirish."

Цель проекта:

O'quv auditoriyalarini jihozlashni optimallashtirish va o'qituvchilar malakasini oshirish

Kutilgan natijalar:

- Ilm-fan sohasida ta'lim sifatini oshirish
- O'quvchilarni ilmiy va laboratoriya bilimlariga ega bo'lishga undovchi quay shart-sharoitlar yaratish

- O'quvchilarning ilm-fan bilimlarini olish istagini oshirish
- Moddiy-texnik bazani takomillashtirish

2021 da **yangi STEM maktabi yaratildi**. Maktab ilmiy fanlarni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy uskunalar bilan to'liq jihozlangan.

ITSM hozirgi vaqtida STEM o'qituvchilari uchun ilm-fan bo'yicha **qo'llanma** ishlab chiqish loyihasida ishtirok etdi va o'qituvchilar uchun loyiha doirasida treninglar o'tkazdi.

⌚ 30 ta STEM maktablar

2022 o'rtafiga qadar maxsus kutubxonalarga ega pilot loyiha ishga tushirilishi kutilmoqda



28 xorijiy o'qituvchilar

Tabiiy fanlar o'qituvchilari mamlakatimizdagi 14 ta hududda STEM fanlarini o'qitish uchun ishga olinadi



Osiyo taraqqiyot banki ko'magida O'zbekiston bo'ylab **300ta** STEM maktablarining ochilishi kutilmoqda

Prezident maktablari

⌚ 06.2019-yildan - 09.2019-yilgacha

Loyha maqsadi:

Iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish, shuningdek, talabalarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
2019-yil 20-fevraldaggi "Prezident
maktablarini tashkil etish
chora-tadbirlari to'g'risida"gi
PQ-4199-sonli qaroriga muvofiq**

Toshkent shahrida birinchi Prezident maktabi tashkil etildi;



Smartland

Interaktiv virtual ta'lif platforma

⌚ 03.2020-yildan - 12.2020-yilgacha



Imkoniyatlar:



Virtual maktab

O'yin davomida o'yinchilarning kelgan yordamchi qahramon yordamida yangi usulda o'rganish imkoniyati



Onlayn ta'lif tizimi

Mavzu bo'yicha differentsiatsiya qilingan va murakkablik darajasi bo'yicha rivojlanayotgan interaktiv topshiriqlarning tartibli to'plami



Dunyo bo'ylab virtual sayohat

Gadjetlar orqali pedagogik jarayon va o'quvchilarni o'qitishni amalga oshiriladigan ta'lif vositasiga



Motivatsiya tizimi

O'quvchi to'g'ri javoblarini qahramon yordamchisining maslahatlariga almashtirilishi mumkin



Bolaning ilmiy faoliyatni onlayn statistikasi

Multiplayer rejimida o'yinchining muvaffaqiyatlarini onlayn kuzatish imkoniyati



Dasturni mahalliylashtirish

O'zbek va rus tillarida mavjud materiallar

ITSM mahalliy va xorijiy o'qituvchilarni tanlash, imtihon savollarini tuzish va saralash, hamda o'quvchilar uchun o'quv materiallarini tarjima qilish jarayonida faol ishtiroy etdi;

Prezident maktablarida tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillarni, muhandislik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-sentabrdagi PF-5815-sonli farmoniga muvofiq, Prezident ta'lif muassasalari agentligi Prezident, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish bo'yicha vakolatli organ sifatida belgilandi.



Natijalar:



Bilimlarni o'rganish jarayoni yanada qulay va qiziqarli bo'ldi



Ota-onalar va o'qituvchilar uchun bolaning ilmiy yutuqlarini monitoring qilishning shaffof tizimi yaratildi



Har bir yosh uchun bilim olishning to'g'ri tizimi yaratildi



Dastur nafaqat qiziqarli, balki to'liq ta'lif berish vositasiga aylandi


Art Shop

03.2021-yildan - 12.2021-yilgacha



Loyha maqsadi:

Xalq ta'limi tizimida maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish, yoshlarning qo'lida yasalgan buyumlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha va shaxsiy ko'nikmalarini namoyon etishi uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat



O'quvchilar o'rtaida ijodkorlikni ommalashtirish;

- O'quvchilarning internet-do'kon orqali pul ishlashlarini ta'minlash;
- Qo'lida tayyorlangan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda reklama qilish va sotish;
- Bolalarning hunarmandchilikka qiziqishini rag'batlantirish.



Art Shop – "Barkamol avlod" markazlari mahsulotlarini reklama qilish va sotish uchun mo'ljallangan elektron savdo maydonchasi.



MARKAZ LOYIHALARI

Ta'lim tizimidagi yangi tashabbuslar



EDUCARE


05.2021-yildan - 12.2021-yilgacha

**Loyiha
maqsadi:**


Xalq ta'limi tizimida o'quvchilar va o'qituvchilarning hayotiy va psixologik ko'nikmalarini oshirish bo'yicha yagona platformani ishlab chiqish



Loyihaning vazifasi videodasturlar, animatsion filmlar, ijtimoiy roliklar va treninglar ishlab chiqish orqali platforma mazmunini boyitishdan iborat.



Tibbiy-psixologik xabarga ega ijtimoiy loyiha, psixologik-pedagogik modullarni o'z ichiga olgan "Kelajak o'z qo'lingizda" dasturini ishlab chiqish orqali o'quvchilar psixologiyasi bilan bog'liq aniq va tizimli masalalarni hal etishga xizmat qiladi.



✓ 12 videotrening

Loyiha doirasida o'smirlarning xususiyatlari va ehtiyojlarini aniqlash orqali ularning jismoniy, psixologik va ma'naviy salomatligini mustahkamlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan 12 ta videotreninglar ishlab chiqildi.

O'smirlarda maqsad qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish, internetga qaram bo'lib qolishga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish, o'smirlarning shaxsiy rivojlanishini rejalashtirish va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan animatsion filmlar suratga olinadi.

MARKAZ LOYIHALARI

Elektron kontent ishlab chiqish

EduKids

Turli mavzularda bolalar
va kattalar uchun animatsiya videolar

04.2019-yildan - h.v.



Loyiha maqsadi:

Bolalar va umumta'lim maktablari o'quvchilarining video va interfaol usullar orqali bilim olishga qiziqishini oshirish, shuningdek, bolalarga ta'larning noan'anaviy usullarini joriy etish




Video mavzular:

- Motivatsiya
- Tarix
- Ta'lif
- Texnologiya
- Aloqa madaniyati
- Sogliqni saqlash
- Tarbiya
- Intizom
- Qiziqarli faktlar va boshqalar

Videolavhalar ITSMning rasmiy Telegram kanali, veb sahifasi, Youtube kanali va Bolajon TV kanalida taqdim etilgan.

Loyiha boshlanganidan buyon 100 dan ortiq video chiqarildi.



Edu Kids animationsion videolar turkumi

yoshlarni o'z ustida ishlash va kelajakda muvaffaqiyatga erishishga undash, ota-onalar va o'qituvchilarning rolini oshirish hamda O'zbekistonda ta'lif sifatini oshirishda jamiyatning har bir a'zosini ijtimoiy faoliyka undashga qaratilgan.

Videolar keng ko'lamli ilmiy faktlar, voqealar va hikoyalarni, jumladan, STEAM ta'lif bo'yicha mavzularini qamrab oladi

VR-sayohat


05.2021-yildan - 12.2021-yilgacha

Loyiha maqsadi:

Interfaol formatda dunyo va O'zbekiston madaniy merosi haqida xabardorlikni oshirish va tanishtirish



VR-sayohat platformasi O'zbekiston Respublikasining "Barkamol avlod" maktablariga onlayn ekskursiyalarni tashkil qilish uchun mo'ljallangan platforma bo'lib, respublikaning **Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz** shaharlardagi tarixiy obidalar, madaniyati va an'analari bilan virtual tanishish imkonini beradi.



Ushbu loyiha yakunida quyidagi natijalarga erishish kutilmoqda:

- ✓ Ichki turizmni rivojlantirish va buning natijasida o'quvchilarning tarix fanini o'rGANISHGA bo'lgan ishtiyoqini oshirish;
- ✓ O'quvchilarga tarixiy meros, madaniyat va milliy mafkura haqida bugungi kun talablari asosida mukammal tushuncha berish;
- ✓ O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarning urf-odatlari, tarixi, diqqatga sazovor joylari bilan tanishish;
- ✓ Bugungi ta'lif tizimiga zamонавија texnologiyalarni joriy etish;
- ✓ Milliy va xorijiy tarixiy obidalarni virtual reallikda qo'shimcha xarajatlarsiz ko'rish va ular bilan tanishish imkoniyatini yaratish.